
TUNU KUN ISHLAYDIGAN SHOXOBCHALAR turizm rivoji va aholi bandligiga xizmat qilmoqda

Rishton tumanidagi "Markaz" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Ar-Roshidoniya ko'chasida tunu kun ishlaydigan 80 ta xizmat ko'rsatish shoxobchasi ishga tushirilib, 260 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Bu bejiz emas. Tuman markazida joylashgan bu eng uzun ko'cha aholi va transport qatnovi uchun juda qulay bo'lib, aksariyat aholi shu yo'l bo'ylab harakatlanadi. Bu yerda oziq-ovqat va xo'jalik mollari, kulollik mahsulotlari sotuvi, eshik va romlar ustaxonasi, kompyuter xizmati, sartaroshxona, dorixona, stomatologiya, tibbiy diagnostika, qassobxona, umumiy ovqatlanish, pishiriq tayyorlash shoxobchalari, fotostudiya, ayollar go'zallik va kelinlar liboslarisaloni singari o'nlab xizmat ko'rsatish tarmoqlari ishga tushirildi.— Bundan ikki-uch yil ilgari oddiy gugurt xarid qilish yoki soch oldirish uchun tuman markaziga borganimiz, — deydi mehnat faxriysi Yo'ldoshali Dadaboev. — Bugun mahallamizning o'zida aholi uchun zarur bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari tashkil etilgani uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil qildi. Bundan tashqari, mahallamiz obod bo'ldi. Loyiha tashabbuskorlarisay-harakati bilan tungi chiroqlar o'rnatildi, yo'llar asfaltlandi, piyodalar yo'laklari, transport to'xtash joylari qurildi. Qo'shni mahalladagilar, uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar hambeminnat xizmat turlaridan bahramand bo'lyapti. Ahamiyatli jihati, tumanda xizmatko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 93,6 milliard so'mga teng 303 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 910 ta yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan. Bugungi kungaqadar 66,1 milliard so'mlik 276 loyiha ro'yobga chiqarilib, 805 kishi ish bilan ta'minlandi. Xo'ja Rushnoiy ziyoratgohi to'liq rekonstruktsiya qilinib, yiliga 120 ming mahalliy va xorijiy sayyohni qabul qila oladigan majmuaga aylantirildi. Ziyoratchilarga qulaylik yaratish uchun kutubxona ham qurildi. Alisher Navoiy mahallasida "Mingboshi keramik" oilaviy korxonasi tomonidan uy-muzeyi tashkil etildi.— Prezidentimizning "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlar rivojida muhim o'rin tutmoqda, — deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Aziz Mustafoulov. — Qaror ijrosi doirasida 12 ta mahalla fuqarolar yig'inini turizm mahallalariga aylantirish, savdo-servis sohasini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Yo'l bo'ylarida savdo, ko'ngilochar, gastronomik, turizm va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan maxsus maskanlar bo'y ko'rsatmoqda. Eng muhimi, mazkur mahallalarda tadbirkorlarning aylanmadan olinadigan soliq to'lovi stavkasi 2022 yil 1 apreldan boshlab 1 foiz etib belgilangani hisobiga 127 yuridik shaxs ixtiyorida 739 million so'm, 109 nafar yakka tartibdagi tadbirkorda 766 million so'm qolmoqda. Bundan tashqari, qarorga asosan, yer va mulk soliqlari stavkasi 90 foiz kamaytirilishi natijasida joriy yilda turizm hududida joylashgan 327 noturar ob'ektga hisoblangan 770,9 million so'm tadbirkorlar ixtiyorida qolmoqda. Asosiy maqsad — yangi xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatini rivojlantirish orqali bandlikni ta'minlash, ishsizlarni kasb-hunarga o'rgatib, mablag' va sharoit bilan ta'minlash.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri.

2022-12-17 09:22:30